U. A. Madrahimov [10] barqaror iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tadqiq etar ekan, O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror o'sish drayverlarini aniqlab, ularning samarali faollashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslagan. K. Y. Jabbarov [11] esa AKTdan foydalanish, innovatsiyalarni keng joriy etish va soliq siyosatini optimallashtirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamlashuv milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy ko'rinishiga aylanmoqda.

Mulaydinov F. [12] o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sohasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, ularning qo'llash mexanizmlari, tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi qo'shilgan qiymat va bandlikka ta'siri, shuningdek O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning institutsional, texnologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilgan. Muallif mamlakatda raqamli iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda xalqaro amaliyotni milliy sharoitga moslashtirish muhim ekanini alohida ta'kidlaydi.

Shundan kelib chiqib, mavzu bo'yicha mahalliy tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini turli yo'nalishlarda o'rgangan bo'lsa-da, sifatli o'sishning integral indeksi, raqamli omillarning tarkibiy ta'sirini o'lchash, sohaviy samaradorlikni baholash va raqamli transformatsiyani iqtisodiy modellarga implementatsiya qilish kabi qator masalalar hali to'liq yechimini topmagan. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni davom ettirishni dolzarb qilib qo'yadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni ilmiy jihatdan asoslangan tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash maqsadida qator klassik va zamonaviy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, induksiya va deduksiya usullari nazariy umumlasmalar chiqarish hamda empirik ma'lumotlarni tizimlashtirishda qo'llanildi. Statistik ma'lumotlarni guruhlash va tanlama kuzatuv usullari tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlarning tarkibi va dinamikasini chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

Korrelyatsion va regression tahlillar raqamli iqtisodiyot omillari bilan iqtisodiy o'sish sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning darajasi va yo'nalishini empirik jihatdan baholashda asosiy instrument sifatida ishlatildi. Ilmiy abstraksiyalash uslubi murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirilgan nazariy modellarga aylantirish, ularning ichki qonuniyatlarini aniqlash va konseptual asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.



Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarning kelgusi rivojlanish traektoriyalarini baholashda prognozlash usullari — xususan, ssenariyli prognoz, trend ekstrapolyatsiyasi va iqtisodiy-matematik modellardan foydalanildi. Ushbu metodlarning kompleks qo'llanishi tadqiqot natijalarining ishonchililigini oshirdi va iqtisodiy o'sish sifatini baholashda xolistik yondashuvni ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sish har qanday mamlakatning umumiy boyligini ko'paytirish, aholi farovonligini oshirish va qashshoqlik, oziq-ovqat tanqisligi hamda boshqa ijtimoiy muammolarni bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror darajasi dunyodagi aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning eng asosiy tarkibiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy barqarorligi va global raqobatbardoshligi ko'p jihatdan aynan iqtisodiy o'sishning mazmuni va sifati bilan belgilanadi.

Zamonaviy iqtisodchilarning katta qismi sifatli iqtisodiy o'sishni faqat resurs xarajatlarining ortishi bilan emas, balki ishlab chiqarish omillarining yanada murakkab va innovatsion xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bog'laydi. Bunday o'sish resurslar hajmini ekstensiv ravishda ko'paytirish emas, balki ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, ya'ni rentabellik va mahsuldorlikni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Sifatli o'sish modeli texnologik yangilanish, innovatsiyalar joriy etilishi, mehnat unumdorligining oshishi, ishchilarning bilim va malaka darajasining ko'tarilishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bunday o'sish, avvalo, ilmiy-texnik taraqqiyotga tayanadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni tejash, yangi qiymat yaratish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, mehnat resurslari malakasining oshishi, ularning harakatchanligi, resurslarni samarali taqsimlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va mehnat intizomini yaxshilash kabi omillar ham iqtisodiy o'sish sifatini belgilaydi.

Uchinchi ming yillikda jahon hamjamiyati rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari BMTning strategik ma'ruzalarida aniq belgilangan bo'lib, ularga qashshoqlikni kamaytirish, atrof-muhit sifatini yaxshilash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish kabi vazifalar kiradi. Mazkur maqsadlar sifatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashni taqozo etadi. Shu munosabat bilan iqtisodiy o'sishning faqat miqdoriy ko'rsatkichlarini emas, balki uning sifat jihatini baholash dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sishning miqdori va sifati o'rtasidagi muvozanatni aniq belgilash barqaror rivojlanish modelini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sifatli rivojlanishni baholashda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq ko'rsatkichlar sonining juda ko'pligi ulardan amalda foydalanishni murakkablashtirib qo'yadi. Ko'p sonli indikatorlarning mavjudligi davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlarni belgilashni kundan-kunga qiyinlashtiradi, shuning uchun ko'rsatkichlarni ratsional saralash, ularning ierarxiyasini belgilash va amaliy ahamiyatini baholash talab etiladi. Bu muammo xalqaro miqyosda ham o'z yechimini topgan.

Xususan, 2001-yilda BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi indikatorlar sonini ikki baravarga qisqartirdi — avval 130 dan ortiq bo'lgan tizim 60 ga yaqin asosiy indikatorga tushirildi. Bu jarayon indikatorlarni yuritish va tahlil qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Yevropa Ittifoqi esa atrof-muhit sifatini baholash uchun 11 ta asosiy indikatorni taklif qilgan. Ko'plab mamlakatlar shunday minimallashtirish amaliyotidan foydalanib, indikatorlar tizimini soddalashtirgan.


Masalan, AQShda 400 ta indikatoridan 40 ta eng muhim mezon saralab olingan; Buyuk Britaniyada jami 7 ta strategik ko'rsatkich asosiy indikator maqomiga ega; MDH Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun esa barqaror rivojlanishni baholashning 5 ta asosiy indikator tavsia etilgan. Ushbu misollar indikatorlar tizimini amaliy va boshqaruv nuqtayi nazaridan optimallashtirish muhimligini, ko'p sonli ko'rsatkichlar o'rniga strategik ahamiyatga ega kam sonli indikatorlardan foydalanish maqbuligini isbotlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sish sifatiga baho berishga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarda ustuvor muammolar reytingi an'anaviy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlarga ajratiladi. Bu yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasida keng qo'llaniladi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini kompleks baholashda muhim analitik vosita hisoblanadi. Biroq bizning tadqiqotimizda e'tibor iqtisodiy o'sishga xos muammolarga emas, balki iqtisodiy o'sishning sifatini belgilaydigan asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan.

Shu munosabat bilan iqtisodiy o'sishni sifat jihatdan baholashda muammolarni guruhlashdan ko'ra, uni shakllantiradigan tarkibiy omillarni, ya'ni rivojlanish drayverlarini ko'rsatkichlar to'plami bilan aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tanlangan omillar iqtisodiy o'sishning qanday mazmunda kechayotganini, uning aholi farovonligi, innovatsion faollik, resurslardan samarali foydalanish va institutsional sifatga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini baholash imkonini yaratadi.



Iqtisodiy o'sish sifatini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan mezonlar asosida O'zbekiston uchun tegishli ko'rsatkichlar to'plami shakllantirildi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatdagi iqtisodiy o'sish modelining sifat omillarini aks ettiradi va rivojlanishning inson kapitalidan tortib texnologik yangilanishgacha bo'lgan asosiy jihatlarini qamrab oladi. Mos ravishda, shu asosda iqtisodiy o'sish sifatini belgilaydigan omillar tizimi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sish sifatini belgilaydigan omillar¹

Iqtisodiy o'sish sifatiga oid omillar va ularni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar to'plami vaqt o'tishi bilan, shuningdek joriy va kelgusi davr rivojlanish vazifalariga qarab o'zgarishi tabiiy holdir. Chunki iqtisodiy tizimning dinamikasi, texnologik o'zgarishlar, mehnat bozoridagi tendensiyalar va global bozor konyunkturasi iqtisodiy sifat mezonlarining doimiy yangilanib borishini taqozo etadi. Shu bois ishlab chiqilgan indikatorlar tizimidan faqat bir mamlakat emas, balki har qanday davlat o'zining iqtisodiy o'sish sifatini, atrof-muhitni boshqarish samaradorligini, aholi farovonligini va umuman barqaror rivojlanish darajasini baholash vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish mezonlari obyektiv iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish munosabatlarining muhim shakllarini ifodalaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, mezonlar iqtisodiy jarayonlarni ongli ravishda boshqarish, iqtisodiy siyosat strategiyasini shakllantirish hamda mamlakatning rejalashtirilgan va hisobot ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish mezonlari davlatning iqtisodiy strategiyasini belgilashda, ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini tanlashda va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi momentlardan biri sifatida ishlaydi.

Shu ma'noda, sifatli iqtisodiy o'sish mezonlarini ilmiy asosda belgilash va ularni amaliyotga tatbiq etish nafaqat iqtisodiy siyosat samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy rivojlanishning barqaror va ijtimoiy adolatli modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Barqaror va samarali iqtisodiy o'sishga erishish, avvalo uning sifat jihatlarini aniqlaydigan va baholaydigan mezonlarni ishlab chiqishni talab etadi. Sifatli iqtisodiy o'sish mezonlari ostida iqtisodiy o'sish natijalari bilan ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, shuningdek iqtisodiy o'sishning mamlakat taraqqiyot maqsadlariga qay darajada xizmat qilayotganini anglatamiz. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy dinamikaning mazmunini ochib beradi va uning aholi farovonligi, ijtimoiy barqarorlik, texnologiyalar rivoji hamda resurslarni tejankor foydalanish bilan uyg'unligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish samaradorligini baholashda uning moliyalashtirish manbalari qanday shakllanganini, o'sish qaysi resurslar hisobiga amalga oshirilganini va ushbu o'sishni ta'minlash xarajatlarning natijalar bilan qay darajada mutanosibligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki o'sishning yuqori sur'atlari ko'p hollarda ijtimoiy farovonlik, daromadlar barqarorligi va resurs tejankorligi bilan uyg'un bo'lmasligi mumkin. Shu sababli iqtisodiy o'sishni baholashda nafaqat uning natijalari, balki uning "qiymati" — ya'ni ushbu o'sishni ta'minlash uchun sarflangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xarajatlar ham inobatga olinishi lozim.

Ushbu ikki yondashuv tabiatan turlicha bo'lib, ular o'rtasida muayyan qarama-qarshiliklar mavjud. Biroq ularni ustuvorliklarni to'g'ri belgilash orqali, ya'ni strategik maqsadlarga ko'ra optimal muvozanatni topish yo'li bilan bir-biriga uyg'unlashtirish mumkin. Bunday muvozanat iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshiradi hamda iqtisodiy o'sishning barqaror va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Biz mutanosib rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiyotning maksimal ko'lamini va uning sifat darajasi mezonlarini ko'rib chiqar ekanmiz, ularning har ikkisi mamlakatning resurs imkoniyatlari, tarkibiy o'zgarishlar

1 Muallif ishlanmasi



sur'ati va iqtisodiy dinamikaga ta'sir etuvchi omillar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'ramiz. Makroiqtisodiy tizimdagi tabiiy kechikishlar, resurslarning cheklanganligi va tarmoqlar o'rtasidagi muvozanat mamlakat rivojlanish modelining sifat jihatdan qanday shakllanishini belgilaydi. Shu sababli sifatli o'sish mezonlarini tanlashda nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki iqtisodiyotning ichki tuzilmasi va uning uzoq muddatli barqaror rivojlanishga moslashuv imkoniyatlari ham inobatga olinishi zarur.

Jahon iqtisodiy fanining so'nggi yillardagi rivoji makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish metodologiyasiga nisbatan tanqidiy munosabatning kuchayganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, an'anaviy makromodellarda keltirilgan talqinlar ko'p hollarda haqiqiy iqtisodiy jarayonlarni o'ziga xos soddalashtirilgan shaklda ifodalayotgani olimlar o'rtasida norozilik uyg'otmoqda. Bu esa makroiqtisodiy modellarga nisbatan yangi, ilmiy jihatdan chuqurroq va amaliyotga yaqin iqtisodiy yondashuvlar izlashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda ishlab chiqarish funksiyalarini qo'llash foydali usullardan biri sifatida tan olinmoqda.

Ishlab chiqarish funksiyalaridan foydalanishning afzalligi shundaki, ular makroiqtisodiy jarayonlarni ko'p omilli modellashtirish imkonini beradi, shu bilan birga ularning qurilishi qulay, iqtisodiy mantiqi ochiq va tushunarli bo'ladi. Ishlab chiqarish funksiyasi orqali iqtisodiy o'sish manbalari — kapital, mehnat, texnologiya va boshqaruv omillarining o'zaro ta'sirini o'lchash va tahlil qilish mumkin. Shuningdek, bunday modellar iqtisodiyotni optimallashtirish bo'yicha qator vazifalarni hal qilish, makroiqtisodiy siyosatda manevr qilish imkoniyatini yaratish va eng muhimi, mavjud statistik ma'lumotlar bilan ishlashda yuqori darajada amaliy samara berishi bilan ajralib turadi. Ushbu metodikaning kamchiligi esa tashqi omillarni tahlildan qisman chetda qoldirishidir.

Makroiqtisodiy siyosat strategiyasini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ishlab chiqarish funksiyalarini qayta ko'rib chiqish O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lgan qator masalalarni ilmiy asosda yoritish imkonini beradi. Birinchi navbatda, ishlab chiqarish omillarining umumiy daromadagi ulushi va ularning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan haqiqiy hissasini aniqlash masalasi turadi. Chunki daromadlarni taqsimlashda iqtisodiy adolat masalasi ilmiy jihatdan asoslangan xulosa va indikatorlarni talab qiladi.

Yana bir dolzarb masala — ishlab chiqarish omillari o'rnini bosish (substitution) jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganishdir. Masalan, mehnat omillarining sifat jihatdan yaxshilanishi kapital omillarining samaradorligiga qanday ta'sir qiladi yoki texnologik yangilanish inson kapitali sifatini qay darajada jadallashtiradi — bunday savollar ishlab chiqarish funksiyalari tahlili orqali asosli tarzda o'rganilishi mumkin. Shuningdek, omillar sifatining o'zgarishi ishlab chiqarish funksiyalarining miqdoriy parametrlariga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi ham juda muhim va bugungi kunda O'zbekiston sharoitida alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish mehnat va kapital o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni, shuningdek ilmiy-texnik taraqqiyotning rolini aniqlash imkonini beradi. Chunki mehnat va kapital har qanday iqtisodiyotda ishlab chiqarishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish funksiyasini makroiqtisodiy talqin qilish esa iqtisodiy jarayonlarning namoyon bo'lish shakllarini aks ettiruvchi turli miqdoriy munosabatlarni o'zaro taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Bu usul orqali ishlab chiqarish omillari va ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri ilmiy jihatdan aniq hamda tizimli baholanadi.

Biroq iqtisodiy o'sishni empirik jihatdan tahlil qilishda faqat neoklassik modellarga tayanib bo'lmaydi. Agar ishlab chiqarish funksiyasining asosiy sharti — miqyosga nisbatan doimiy qaytish (constant returns to scale) — real iqtisodiy holatga mos kelmasa, unda model koeffitsiyentlari bo'yicha olinadigan xulosalar ishonchli bo'lmasligi mumkin. Masalan, agar ishlab chiqarish funksiyasi miqyosga nisbatan ortib boradigan qaytishga ega bo'lsa (increasing returns to scale), neoklassik modellar orqali hisoblangan umumiy omil unumdorligi (TFP) sun'iy ravishda yuqori baholanadi. Bunday holda mamlakatlar o'rtasidagi o'sish sur'atlaridagi farqlar TFP bilan emas, balki omillar rentabelligi (returns to factors) darajasidagi tafovutlar bilan izohlanadi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan ekonometrik modellar natijalariga ko'ra, ssenariylarning katta qismi statsionar xususiyatga ega bo'lib, yalpi ichki mahsulot (YalM) deflyatori bundan mustasno ekani aniqlandi. YalM deflyatorini statsionar holatga keltirib bo'lmasligi inflyatsiya dinamikasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning ishonchligini tekshirish uchun kointegratsiya testidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar inflyatsiya darajasi alohida holda statsionar bo'lmasa ham, YalM va YalM deflyatori orasida kointegratsiya mavjud bo'lsa, ssenariyning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydigan munosabatlar shakllanganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan kointegratsiya testlari YalM qatorlari va YalM deflyatori o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Shuning uchun modeldan olingan koeffitsiyentlar iqtisodiy mazmun jihatdan ishonchli deb baholanishi mumkin. Bu hisob-kitoblar o'sishni baholashda ishlab chiqarish omillarining dinamikasi va inflyatsiya ta'sirini to'g'ri hisobga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Iqtisodiy jarayonlarni to'laqonli tahlil qilish, tarmoqlar va sohalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, shuningdek makroiqtisodiy siyosatni ilmiy asosda rejalashtirish uchun qisqa va uzoq muddatli prognozlar tayyorlash imkonini beruvchi ssenariy modelini ishlab chiqish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday modellar iqtisodiyotdagi o'zgarishlar traektoriyasini, ehtimoliy xatarlarni, resurslar taqsimotidagi o'zgarishlarni va tarkibiy dinamikani oldindan baholashga xizmat qiladi.



Ssenariy modelining qiymati shundaki, u iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi, omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aks ettiradi va strategik qaror qabul qilishda muqobil yo'nalishlarni solishtirish imkonini yaratadi. Ya'ni bunday modellar nafaqat mavjud vaziyatni tavsiflaydi, balki iqtisodiy siyosat uchun "alternativ rivojlanish yo'llari"ni ko'rsatib beradi.

Yuqorida keltirilgan ssenariy asosida aniqlangan iqtisodiy o'sish modellari esa ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Bunda kapital unumdorligi, texnologiyalar rivoji, mehnat resurslari, inson kapitali sifatining oshishi, raqamli transformatsiya sur'ati kabi omillar modelga kiritilgan holda o'sishning ehtimoliy ssenariylari baholanadi. Har bir omilning o'zgarishi umumiy o'sishga qay darajada ta'sir qilayotganini hisoblash orqali optimal rivojlanish traektoriyasini aniqlash mumkin bo'ladi.

Shu tarzda ssenariy modellashtirish iqtisodiy o'sishning barqaror, tezkor va sifat jihatdan yuqori bo'lishini ta'minlash uchun strategik axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Ushbu usullar O'zbekiston sharoitida ham makroiqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash, tarmoqlar kesimida ustuvorliklarni belgilash va barqaror o'sish modelini shakllantirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

$$YIM = \frac{AFQ^{0.474} * IBS^{8.456} * KS^{1.05} * TRD^{0.067}}{AKI^{0.38635173} * e^{75.45}} \quad (1^*)$$

Asosiy kapitalga investitsiyalar - $AKI = -20487,8 + 10984,9 * t$;

Iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy fondlar qiymati - $AFQ = -26665,4 + 47650,3 * t$;

Iqtisodiyotda bandlar soni - $IBS = 8167 + 241,4 * t$;

Korxona va tashkilotlar soni - $KS = 122,4 + 16,8 * t$;

Tabiiy resurlardan olingan daromad, YalMga nisbatan - $TBD = 21,6 + 0,5 * t$.

Aniqlangan ko'p omilli 1*-regressiya tenglamasi hamda unda ishtirok etgan omillarning vaqtga bog'liq dinamikasini ifodalovchi tenglamalar tizimidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining (YalM) $t = 22$ nuqta uchun prognoz qiymatlari hisoblanadi. Mazkur prognoz natijalari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular YalM o'sish traektoriyasining ehtimoliy o'zgarishini va asosiy makroiqtisodiy omillarning kelgusi davrdagi ta'sir kuchini baholash imkonini beradi.

Bu yondashuv ko'p omilli regressiya modeli orqali YalM o'zgarishini aniqlashga imkon berib, har bir omilning dinamikadagi ulushi, ta'sir yo'nalishi va prognoz davridagi rolini empirik aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, vaqt funksiyalari asosida olingan prognoz qiymatlari iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli yo'nalishlarini tahlil qilish va makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim analitik ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishining ko'p omilli prognozi²

Yillar	YalM, mlrd. so'm	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	Asosiy fondlar qiymati (mlrd. so'm)	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming	Korxona va tashkilotlar soni, ming dona	Tabiiy resurlardan olingan daromad, (YalMga nisbatan)%
2021	731045,2	221180	1021641,2	13477,8	492	32,6
2022	883371,3	232164,9	1069291,5	13719,2	508,8	33,1
2023	1063330	243149,8	1116941,8	13960,6	525,6	33,6
2024	1275233	254134,7	1164592,1	14202	542,4	34,1
2025	144175.40	265 119.6	1 212 242.4	14 443.4	559.2	34.6
2026	1622627.61	276 104.5	1 259 892.7	14 684.8	576.0	35.1
2027	1803879.82	287 089.4	1 307 543.0	14 926.2	592.8	35.6
2028	1985132.03	298 074.3	1 355 193.3	15 167.6	609.6	36.1
2029	2166384.24	309 059.2	1 402 843.6	15 409.0	626.4	36.6
2030	2347636.45	320 044.1	1 450 493.9	15 650.4	643.2	37.1

2 Manba: muallif hisob-kitoblari



Jadval ma'lumotlari O'zbekiston iqtisodiyotida 2021–2030-yillar davomida barqaror o'sish modelining shakllanayotganini ko'rsatadi. YalM hajmi 2021-yildagi 731 trln so'mdan 2030-yilda 2,34 trln so'mgacha o'sishi, o'rtacha yillik 10–12 foiz atrofidagi dinamik o'sish sur'atlarini ko'rsatadi. Bu o'sish tendensiyasi asosan investitsiya faolligining ortishi, asosiy kapital va asosiy fondlar qiymatining yilma-yil barqaror kengayishi bilan bog'liq. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021-yilda 221 trln so'mdan 2030-yilda 320 trln so'mgacha o'sgani iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlarining izchil davom etayotganini anglatadi. Asosiy fondlar qiymati esa 2021–2030-yillarda deyarli 40% ga o'sib, mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanish sur'ati yuqoriligini namoyon qiladi.

Iqtisodiyotda bandlar soni ham yaxlit o'sish tendensiyasiga ega — 2021-yilda 13,48 mln kishidan 2030-yilda 15,65 mln kishigacha o'sishi mehnat bozorida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilayotganini, iqtisodiy faol aholi ulushi ko'payib borayotganini va xizmatlar hamda sanoat tarmoqlaridagi kengayishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, korxona va tashkilotlar sonining 492 mingdan 643 mingga ko'payishi tadbirkorlik sektoridagi diversifikatsiya va yangi kichik biznes subyektlari rivojlanishini tasdiqlaydi. Bunday o'sish xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi kengayayotgani va raqobatbardoshlik muhiti kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Tabiiy resurslardan olinadigan daromadning YalMga nisbatan ulushi 2021-yildagi 32,6% dan 2030-yilda 37,1% gacha oshishi esa tabiiy resurs sektori hali ham iqtisodiyotda yetakchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, bu resurslardan foydalanish samaradorligining oshganini anglatasa, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotni xomashyo omillariga bo'lgan bog'liqlik saqlanib qolishi xavfini bildirishi mumkin. Shu sababli 2025–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy diversifikatsiya, innovatsion kapitalga investitsiya va inson kapitaliga sarmoyalar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda hali ham mo'tadil sur'atlarda o'sib borishi, erishilgan natijalar va dinamika ko'rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishi mamlakat rivojlanish strategiyasida tamoman yangi maqsad va ustuvorliklarni belgilash imkonini yaratadi. Bu jarayon, eng avvalo, iqtisodiyotning asosiy tarkibiy xususiyatlari va sifat ko'rsatkichlarining yomonlashmasdan, aksincha modernizatsiya va texnologik yangilanish hisobiga yangi bosqichga ko'tarilayotganini anglatadi. Natijada nafaqat mahsulotlarning raqobatbardoshligi, balki kapitalning raqobatbardoshligi ham oshadi, bu esa sarmoyalar samaradorligining yuqoriligi va kapitalning tez yangilanib borishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirgi sharoitda iqtisodiyot barqaror va uzoq muddatli rivojlanish traektoriyasiga chiqishi uchun eng muhim omil mehnat va kapitalning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Chunki aynan shular iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari bo'lib, ularning samaradorligi oshgan sari jahon bozorlarida barqaror raqobatbardoshlikka erishish imkoniyati ortib boradi. Daromadlarning o'sishi, innovatsion mahsulotlarning ko'payishi va eksport salohiyatining kengayishi ana shu omillarning mustahkamlanishi bilan bevosita bog'liq.

Uzoq muddatli rivojlanish muammolarini hal qilishning asosiy va eng samarali vositasi — sarmoyadir. Investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchaytiruvchi fundamental omil sifatida resurs cheklovlarini yumshatadi, tarkibiy disproportionalarni bartaraf qiladi, texnologik yangilanishni tezlashtiradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Faqat keng ko'lamli va maqsadli investitsiyalar orqali ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyasi, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish va yuqori qiymat qo'shuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish imkoni paydo bo'ladi.

Shu ma'noda, kapital quyilmalarining samarali boshqarilishi va investitsiya muhitining yaxshilanishi O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu mamlakatning nafaqat ichki barqaror o'sishini, balki global iqtisodiy makonda o'z maqomini mustahkamlashini ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ssenariy tahlillari asosida investitsiyalar inflyatsiyaning manbai bo'lishi mumkin degan fikrlar ilgari surilishi tabiiy. Biroq so'nggi yillarda ko'plab iqtisodchilar ushbu munosabat bir qator parametrlar bilan cheklanishini ta'kidlamogda. Xususan, ilmiy tadqiqotlar investitsiyaning inflyatsiyaga ta'siri, asosan, qisqa muddatli davrda namoyon bo'lishini, uzoq muddatli istiqbolda esa investitsiyalarning iqtisodiyot uchun ijobiy qaytimi kuchliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bunday xulosa sanoat ishlab chiqarish indeksi va iqtisodiyotdagi keng pul massasi o'rtasidagi farq minimallashtirilganda, investitsiyalar inflyatsiya bosimini oshirish emas, balki uni barqarorlashtirishga xizmat qilishini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekonometrik modellardan foydalangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblar investitsiyalarning inflyatsiyaga ta'siri qisqa davrda salbiy bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatda investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omilga aylanadi. Investitsiyalarning o'sishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, texnologik bazani kengaytiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi va xususiy kapitalning faol jalb etilishiga zamin yaratadi. Bunday holat, odatda, pul massasi o'sishi bilan birga ichki bozorda



investitsiya jozibadorligi oshganda, xususi investorlar soni ko'payganda va moliyaviy resurslar samarali qayta taqsimlanganda yuzaga keladi.

Pul massasining o'sishi foydaning qayta taqsimlanishiga, bo'sh mablag'larni investitsiya kanallariga yo'naltirilishiga olib keladi. Shu orqali iste'mol tovarlari va xizmatlari bozorida talab bosimi nisbatan kamayib, inflyatsiyaning pul massasi o'sishiga nisbatan past darajada namoyon bo'lishi mumkin. Demak, investitsiyalarning sezilarli darajada — hatto 135 foizgacha oshishi iqtisodiy inqirozlar davrida ham makroiqtisodiy beqarorlikni kuchaytirmaydi, aksincha, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Sarmoyalar o'sishining bunday ssenariylari O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanish salohiyati bilan izohlanadi. Investitsiya faolligining oshishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun ham jozibador muhit yaratadi, aholining iqtisodiy siyosatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Uzoq muddatli davrda investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yangi xizmat turlarining paydo bo'lishi va malakali mehnat bozorida talabning o'sishiga katta hissa qo'shadi.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, zamonaviy ekonometrik tadqiqotlar investitsiyalarning ko'paytirilishi inflyatsiyaning asosiy drayveri emasligini, balki uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning asosiy ustuniga aylanishini isbotlamoqda. Bu esa investitsiyalarni rag'batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va sarmoyalar samaradorligini oshirish bo'yicha davlat siyosati uchun muhim metodologik asosni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. W. Thomas et al. Quality of growth. The World Bank. "The World", Moscow 2001.
2. Й.Шумпетер. История экономического анализа. Том 3. перевод с английского под редакцией В.С.Автономова. «Экономическая школа», Санкт-Петербургский Государственный университет экономики и финансов. Высшая школа экономики. Санкт-Петербург. 2004 г. 687 с.
3. Veblen T. Christian Morals and the Competitive System // International Journal of Ethics. — 1910 (Vol. 38). — № 2. — P. 168-185
4. Кейнс Дж. М. «Общая теория занятости, процента и денег». -М.: «Гелиос АРВ», 2002. -352с.
5. Domar E. Capital Expansion, Rate of Growth, and Employment //Econometrica. 1946. Vol. 14. P. 137—147.
6. Солоу Р. «Перспективы теории роста» -М.: «МЕ и МО», 1996. 8-изд.
7. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyot va uning asosiy rivojlanish yo'nalishlari. Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 2-son
8. Maxmudov N.M. Iqtisodiy o'sish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo'nalishlari. iqtisod va moliya / ekonomika i finansy 2016, 3. 5-b. <http://itm.uz/files/journals/iqtisod%26moliya/2016/3.pdf>
9. С.В. Чепель «Как повысить эффективность экономической политики: эмпирический анализ роли государственных институтов» // журнал «Вопросы экономики», №7, Москва 2009
10. U.A. Madrahimov. Iqtisodiy o'sish sifati omillarining ilmiy-uslubiy asoslari. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy 2016, 7
11. K. Y. Jabbarov. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2018 yil.
12. Mulyadinov F. Raqamli iqtisodiyot yuksalishning eng qisqa yo'lidir Ta'lim tizimida Ijtimoiy-gumanitar fanlar Ilmiy-metodologik va ilmiy- uslubiy jurnal 2020 № noyabr – dekabr
13. <https://m.kun.uz/news/2019/11/13/ozbekistonni-ijtimoiy-iqtisodiy-kompleks-rivojlantirish-konsepsiyasi-loyihasi-qaytadan-elon-qilindi>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>